

УДК 538.1

## **MA'RUZANI TINGLASH VA IDROK QILISH XUSUSIYATLARI**

f.m.f.n., dots. X.Isayev, ass. O.Z.Sultonov, ass. J.M.Haqqulov  
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

*Maqolada talabalarning bilim olish jarayonida turli fanlardan ma'ruzalarni tinglashda, "tinglash malakasi"ni hosil qilishi va bayon qilinayotgan materialni tushunib olishga qaratilgan bir qancha ko'rsatmalar bayon etilgan.*

*В данной статье написано, что в процессе обучения студентов во время слушания ими лекций, приведено несколько показаний, направленное на образование, «практики слушания» и на усвоение материала.*

*This article shows, that in the process of teaching students during their lectures, include some indications, aimed at the education, «Practice hearing» and the assimilation of the material.*

Ma'ruza mazmunini diqqat bilan tinglash malakasi ma'ruzani tinglash va idrok qilish borasida asosiy hisoblanadi, chunki passiv – xayolparishonlik bilan tinglash oqibatida ma'ruzaning mazmuni talabalar ongida to'liq namoyon bo'lmaydi.

Diqqatning barqarorligini o'qitishning yuksak maqsadlariga mos ravishda iroda kuchlari bilan rivojlantirish zarur. Bu intellektual mashaqqatli mehnatdir. Shuni esda tutish kerakki, talaba bilan ma'ruza o'qituvchi (professor, dotsent) ning tafakkur jarayon o'rtasida katta farq bo'lgani sababli, ma'ruza boshlanishida har doim ham berilayotgan bilimlarni to'la va to'g'ri tushunish hamda o'zlashtirish mumkin bo'lavermaydi. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, yaxshi tinglash uchun pedagog olimlar aytganidek, kishi o'zida "tinglash malakasi"ni hosil qilishi va bayon qilinayotgan materialni tushunib olishga o'zini majbur qilishi va o'rgatishi kerak. Ba'zi talabalarda ana shu xususiyat yetishmaydi [1].

Tinglash, ma'lumki, individual jarayondir. Bu jarayonning muvaffaqiyati va sifati avvalo talabaning psixologik tayyorgarligi bilan belgilanadi. Ijodiy bilish faolligi talabaning berilayotgan bilimlar mazmuniga nisbatan murakkab munosabatlari yig'indisini tashkil qiladi, undan butun intellektual kuchlarini, iroda va emotsional kuchlarini safarbar qilishni talab etadi [1].

Ma'ruzani samarali tinglashning muhim sharti talabalarning ma'ruzaning maqsad va vazifalarini tushunishlaridan iborat. Ma'ruzaning maqsad va vazifalari o'qituvchi tomonidan belgilanib, ma'ruza rejasida ifodalangan bo'ladi. Ma'ruzani aniq maqsadsiz va rejasiz tarzda idrok qilish qiyin. Ma'ruzaning maqsad va vazifalarini belgilash talabaga uning mazmunini tushungan holda kuzatib borish va bu maqsadlarni ochib beruvchi, ularni aniq mazmunlar bilan to'ldiruvchi asosiy qoidalarni tanlab olish hamda xotirada va konspektida qayd etish imkonini beradi.

Ma'ruzani yaxshi tinglash, birinchi navbatda, undan olingan ma'lumotni chuqur analiz qilish, har bir so'z, fikr, jumla va gapning mazmuniga tushunib olishni nazarda tutadi. Tinglash va uni baholovchi fikrlar talabaning doimiy analitik va sintetik aqliy faoliyati bilan qo'shib olib borilishi kerak. Shuningdek, xulosa va isbotlash uchun asos qilib olingan dalillar va misollarga e'tibor berish, ma'ruza mazmunini, o'qituvchi keltirgan misollar va dalillarning har biri qanday ma'no anglatishini tushunib olishga harakat qilish kerak. Bularning hammasi ma'ruza materialini to'liq va sifatli o'zlashtirishni ta'minlaydi.

O'qituvchi ma'ruzani o'qish jarayonida ba'zan hali munozara va muhokamada bo'lgan masalalarni ham bayon etishi mumkin. O'qituvchi ma'lum masalaga oid har xil jarayonlarni tushuntirganda talaba diqqat bilan tinglashi, shu masalaga oid shaxsiy nuqtai nazarini, shaxsiy

fikrini aniqlashga intilishi kerak. Darsdan so'ng bo'sh vaqtda chuqurroq o'ylab ko'rish uchun bu fikr va mulohazalarini talaba alohida yozib qo'yishi mumkin.

Berilayotgan bilimlarni ijodiy tinglash va o'zlashtirishning muhim sharti o'qituvchining ma'ruzachi uslubi, ya'ni uning nutq madaniyati, so'zlash sur'ati va manerasi, materialni bayon qilish tartibi va boshqa xususiyatlaridan iborat. Shuning uchun ma'ruzachi maqsadni qanday aniqlashiga, vazifalarni qanday belgilashiga, muammolar masalalar va muammoning o'zini qanday tushuntirishiga, isbotlarni qanday asoslashiga, qanday qilib xulosa chiqarishiga va umumlashtirishiga e'tibor berishi kerak [2].

Ma'ruza o'quv rejasi bo'yicha ajratilgan vaqtning deyarli yarmini tashkil etadi. O'quv jarayonida ma'ruzaga katta ahamiyat beriladi. Ma'ruzachi biror ma'ruzani o'qir ekan, fanning eng muhim, asosiy momentlarini tushuntiradi va uni tushunarli sodda formada bayon qiladi. Bunda u o'z oldiga quyidagilarni asosiy vazifa qilib qo'yadi:

- talabalarga fan asoslarini tushuntirish, materialni ma'ruzani o'zida o'zlashtirishiga yordam berish;

- ma'ruzadan so'ng nima ustida ishlash, nimalarga e'tibor berish kerakligini ko'rsatish; to'g'ri fikrlashni o'rgatish va talabalarda o'rganilayotgan fanning metodologiyasi haqida aniq, tushunchalar hosil qilish va h.k.

Ma'ruza – bu ijodiy jarayon bo'lib unda bir vaqtning o'zida ma'ruzachi va talabalar qatnashadi. Har qanday ijodiy jarayon kabi ma'ruza ham ijodiy muhitni, ma'ruzachi mehnatini hurmat qilishni talab qiladi [3]. Bu hurmat, birinchi navbatda, ma'ruzachi gaplariga e'tibor berishda ifodalanadi. Hamma talabalar ham ma'ruza sifatini to'g'ri baholayvermaydilar. Ba'zan talabalar ma'ruzani mana bunday baholaydilar: u ma'ruzani yaxshi o'qiydi, deyarli hammasini aytib turadi, biz yozib olishga ulguramiz. Ba'zilar esa ma'ruzachining vazifasi doskada matematik isbotlarni bajarib, formula chiqarishdan iborat deb o'ylaydilar va o'zlarining butun e'tiborlarini shunga qaratadilar. Bunday kishilar ma'ruzaning g'oyaviy mazmunini tushunish va baholashga o'rganishmagan, ular ma'ruzachiga ergashib yangi fikrlarni o'zlashtirishdek qiyin ishda qatnasha olmaydilar.

Oldingi ma'ruzalarga doim qatnashib yurgan, ularning mazmunini o'zlashtirgan, agar biror sababga ko'ra ma'ruzaga qatnashmagan bo'lsa, o'rtog'ining konspekti yoki darslik bo'yicha uning mazmuni bilan tanishgan; ma'ruza oldidan unda bayon qilinadigan materialni xotirasida tiklagan yoki yaxshisi o'z konspektini, darslikni ko'zdan kechirgan talabani ma'ruza tinglashga tayyor deb hisoblash mumkin.

Ko'pchilik ma'ruzachi auditoriyaning ruhini va qanchalik tayyor ekanligini, o'z mehnatiga bo'lgan hurmatini darhol payqaydilar. Ma'ruzachi tinglovchilarning bu munosabatlariga yuqori kayfiyatda ma'ruza o'qish, ularga o'z bilimini, tajribasini o'z izlanishlarini yetkazib berish bilan javob beradi. Ma'ruzaning sifati va uning , natijasi auditoriyadagi talabalarga bog'liqligini, ular bilan ma'ruzachi o'rtasida ko'rinmas, ammo juda sezilarli aloqa borligini unutmashligi kerak [4].

#### Foydalangan adabiyotlar:

1. В.В.Федотов. Техника и организация умственного труда. Минск, 1988.
2. А.Рубаник, Г.Большакова, Н.Тельных. Самостоятельная работа студентов //Высшее образование в России - № 6, 2005. - стр.120- 123.
3. Introductory Physics I-II by Robert G.Brown. Duke University Physics Department. 2013 y.
4. Е.Н.Пряхина. Активизация познавательной деятельности с использованием информационных технологий в рамках самостоятельной работы студентов //Информационные технологии в науке, проектировании и производстве: матер. Всерос. Научно-метод. Конф. -Новгород, 2004. с. 42-43.